

## YUQUMLI KASALLIKLARNING TASNIFI VA ZAMONAVIY EPIDEMIOLOGIK YONDASHUVLAR

**Islomova Gulbahor Abdurazzoq qizi**

*Buxoro viloyati Buxoro Shahar Zarmed Universiteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yuqumli kasalliklarning ilmiy tasnifi va ularga nisbatan zamonaviy epidemiologik yondashuvlar yoritib beriladi. Yuqumli kasalliklarning virusli, bakterial, zamburug‘li, parazitlar va prion kasalliklari kabi asosiy guruhlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, infeksiyalarning uzatilish yo‘llari, epidemiologik zanjir tushunchasi, kasalliklarning tarqalish omillari hamda ularni nazorat qilish strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston va jahon miqyosida keng tarqalgan infeksiyon kasalliklar misolida ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri ochib beriladi. Emlash, gigiyena qoidalariga rioya qilish, karantin choralari va zamonaviy epidemiologik kuzatuv tizimlarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari kasalliklarni erta aniqlash, ularning tarqalishini cheklash va profilaktik choralarni kuchaytirish orqali jamoat salomatligini mustahkamlash imkonini berishi ko‘rsatib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Yuqumli kasalliklar, tasnif, epidemiologiya, virusli kasalliklar, bakterial infeksiyalar, parazitlar kasalliklar, zamburug‘li kasalliklar, prion kasalliklari, epidemiologik kuzatuv, emlash, profilaktika.*

**Аннотация:** *В данной статье будет освещена научная классификация инфекционных заболеваний и современные эпидемиологические подходы к ним. Рассматриваются такие основные группы инфекционных заболеваний, как вирусные, бактериальные, грибковые, паразитарные и прионные болезни. Также будут проанализированы пути передачи инфекций, концепция эпидемиологической цепи, факторы распространения болезней, а также стратегии борьбы с ними. В данной статье будет освещена научная классификация инфекционных заболеваний и современные эпидемиологические подходы к ним. Рассматриваются такие основные группы инфекционных заболеваний, как вирусные, бактериальные, грибковые, паразитарные и прионные болезни. Также будут проанализированы пути передачи инфекций, концепция эпидемиологической цепи, факторы распространения болезней, а также стратегии борьбы с ними. В статье на примере инфекционных заболеваний, распространенных в Узбекистане и во всем мире, раскрываются их социально-экономические последствия. Особо подчеркивается важность вакцинации, соблюдения правил гигиены, карантинных мер и современных систем эпидемиологического надзора. Было показано, что результаты исследования позволяют укрепить общественное здравоохранение за счет раннего выявления заболеваний, ограничения их распространения и усиления профилактических мер.*

**Ключевые слова:** *инфекционные заболевания, Классификация, эпидемиология, вирусные заболевания, бактериальные инфекции, паразитарные заболевания,*

*грибковые заболевания, прионные заболевания, эпидемиологическое наблюдение, вакцинация, профилактика.*

**Abstract:** *This article will cover the scientific classification of infectious diseases and modern epidemiological approaches to them. The main groups of infectious diseases such as viral, bacterial, fungal, parasitic and prion diseases are considered. The ways of transmission of infections, the concept of the epidemiological chain, the factors of the spread of diseases, as well as strategies for combating them will also be analyzed. Motivation: This article will cover the scientific classification of infectious diseases and modern epidemiological approaches to them. The main groups of infectious diseases such as viral, bacterial, fungal, parasitic and prion diseases are considered. The ways of transmission of infections, the concept of the epidemiological chain, the factors of the spread of diseases, as well as strategies for combating them will also be analyzed. Using the example of infectious diseases common in Uzbekistan and around the world, the article reveals their socio-economic consequences. The importance of vaccination, hygiene, quarantine measures and modern epidemiological surveillance systems is emphasized. It has been shown that the results of the study make it possible to strengthen public health by early detection of diseases, limiting their spread and strengthening preventive measures.*

**Keywords:** *infectious diseases, Classification, epidemiology, viral diseases, bacterial infections, parasitic diseases, fungal diseases, prion diseases, epidemiological surveillance, vaccination, prevention.*

### **Kirish**

Yuqumli kasalliklarning umumiy xususiyatlari. Yuqumli kasallik aslida lotincha (infecio) so‘zidan olingan bo‘lib (ifloslanish) ma‘nosini bildiradi. Inson organizmi bilan kasallik qo‘zg‘atuvchi mikrobnig ma‘lum sharoitda o‘zaro ta‘siri oqibatida yuzaga keladigan o‘zgarishlar infeksiya jarayon deb ataladi. Bu kasallik alomatlari yaqqol yoki biroz sezilarli darajada ifodalangan bo‘lishi mumkin. Qanday darajada ifodalanishidan qat‘i nazar, yuqumli kasallik bemor organizmida chuqur patofiziologik, immunologik va funksional o‘zgarishlar paydo bo‘ladi.

Ba‘zi hollarda kasallik mikroblariga inson organizmni befarq qaraydi. Mikrobg nisbatan immunoallergik javob reaksiyasi rivojlanmaydi. Kasallik alomatlari bo‘lmaydi. Mikroba esa ma‘lum vaqtgacha biror a‘zoga joylashib olib, faqat laboratoriya tekshiruviga aniqlanadi. Masalan, difteriya tayoqchasi yoki meningo-kokklar odam tomogida ma‘lum muddatgacha topilib tursa ham, kasallik alomatlari bo‘lmasligi mumkin. Bunday holat bakteriya tashuvchanlik holati deyiladi. Odamda kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroba bir marotabagina topilib, kasallik kuzatilmagan holat tranzitor (tasodifiy-organizmga tushfiyu, chiqib ketdi) bakteriya tashuvchilik deb hisoblanadi. Yuqumli kasalliklar o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ular quyidagilardan iborat.

1. Barcha yuqumli kasalliklar bemor orqali atrofdagi sog‘lom kishilarga yuqushi mumkin. Kasallikning atrofdagilarga yuqish ehtimoli kasallik turiga va kechish davriga bog‘liq.

2. Yuqumli kasalliklarda o‘ziga xoslik mavjud. Har bir kasallik ma‘lum turdagi patogen mikroblar tomonidan qo‘zg‘atiladi. Masalan, difteriyani difteriya tayoqchasi, qizamiqni — qizamiq virusi, vaboni—vabo vibrioni qo‘zg‘atadi. Hech qachon vabo vibrioni difteriyani qo‘zg‘atmaydi yoki aksincha ham bo‘lmaydi.

3. Yuqumli kasalliklar kechishida ma‘lum davriylik kuzayiladi. Patogen mikroblar odam organizmiga tushganidan so‘ng ma‘lum muddatgacha kasallik alomatlari ko‘rinmaydi. Uni yuqumli kasallikning yashirin(inkubatsion)davri deb ataladi. Bu davr muddati turli kasalliklardan turlicha bo‘ladi. Masalan, grippda bir necha soatdan 2 kungacha, ich terlamada 2-3 hafta va hakazo. Keyingi davr kasallik alomatlari namayon bo‘lgan davr hisoblanadi. Unda kasallikning umumiy alomatlari ham, har bir xastalikning o‘ziga xos bo‘lgan klinik alomatlari ham yuzaga chiqadi. Bu belgilar dastlab paydo bo‘ladi, rivojlanib avjiga yetadi va ma‘lum muddatdan so‘ng borib, yoqotadi. Kasallik alomatlari kamaya boshlagandan bemor o‘zini durustroq his qila boshlaydi. Bu tuzalish(rekonvalessensiya)davri boshlaganidan darak beradi. U ko‘pincha sog‘ayish davri bilan tugallanadi. Ayrim hollarda, bu davrda kasallik zo‘rayishi mumkin. Yuqumli kasalliklarda “to‘la sog‘ayish” deganida faqar kasallik alomatlarining to‘la tugashi emas, balki bakteriolog sog‘ayishi ham nazarda tutiladi. Chuqur bemor kasalliklar to‘la forig‘ bo‘lganida, uning organizmidan patogen mikroblar ajralishi ham to‘xtash kerak. Bemor tuzalganidan so‘ng qilinadigan tahlilda(surtma yoki ekmalarda)patogen mikroblar 2-3 karra tekshirilganda topilmasligi bakteriolog sog‘ayishidan darak beradi. Ba’zi kasalliklarda, masalan ich terlama yoki paratiflarda, bemor tuzalib ketganidan so‘ng ham, uning tanasidan patogen mikroblar ajralib turadi. U kasallikdan so‘nggi bakteriya tashuvchilik holati deb ataladi. Bu holat 3 oygacha davom erta, o‘kir bakteriya tashuvchilik, 3oydan ortiq chozilsa surunkali bakteriya tashuvchilik hisoblanadi.

Yuqumli kasalliklardan so‘ng bemor organizmida aynan shu kasallik mikroblariga nisbatan turg‘unlik-immunitet paydo bo‘ladi. Uortirilgan immunitet bo‘lib ,himoya qobiliyati turli muddatgacha saqlanib qoladi. Masalan, grippdan so‘ngi immunitet kuchi aynan shu turdagi virusga nisbatan 3 yilgacha yetadi. Qizamiq na ich terlamadan so‘ng paydo bo‘ladigan immunitet butun umrga yetadi na odam bu kasalliklar bilan qyqtadan og‘rimaydi. Keyingi yillarda ilmiy tekshirishlar natijasida, yuqumli kasalliklaridan so‘ng shakllanadigan immunitet ko‘p jihatdan bemor organizmning genetik na fenotipik xususiyatlariga bog‘liq ekanligi isbotlandi. Patogen mikroblarning odam tanasiga tushish yo‘llari bir xil emas. Har bir kasallikda mikroblarning o‘ziga xos tanaga kirish yo‘li bor. Tananing mikroblar kirib, tarqaladigan joyi infeksiyaning kirish darvozasi deb ataladi. Gripp, qizamiq, suvchechak, ko‘k‘yo‘tal kabi kasalliklarda infeksiyaning darvozasi yuqori nafas yo‘llari hisoblanadi. Ichak infeksiyalari: tif-paratiflar, ichburug‘ va vabo

kasalliklari mikrobi og‘iz orqali tushganida xastalik rivojlanadi. Ba’zi yuqumli kasalliklarda infeksiyaning kirish darvozasi turlicha bo‘lishi.

Yuqumli kasalliklarning tasnifi (klassifikatsiyasi):

Yuqumli kasalliklar qaysi muhitda tarqalishiga qara 2 ga bo‘linadi. Bu kasalliklar hayvonlarda aslo uchramaydi. Qizamiq, difteriya, ich terlama va boshqalar ana shu guruhga kiradimumkin.

Masalan, kuydirgi va toun mikroblari odam tanasiga teri, nafas yo‘llari va og‘iz orqali tushadi. Kasallik mikrobining odam tanasiga qaysi yo‘l bilan tushishiga ko‘ra har bir yuqumli kasallikda u yoki bu a‘zolar asosan jarohatlanadi. Jumladan, asosan nafas yo‘llari orqali yuqadigan kasalliklarda asosan nafas olish sistemasi, og‘iz orqali yuqadigan xastaliklarda — ovqat hazm qilish sistemasi jarohatlanadi. Bolalarni bir necha yuqumli kasalliklarga qarshi emlashdan maqsad, ularning oldini olishdir. Diffteriya, ko‘kkyo‘tal, qizamiq, poliomielitga qarshi emlashlar shular jumlasidandir. Kasallik qo‘zg‘atish xususiyatlariga ega bo‘lgan mikroblar patogen mikroblar deb ataladi. Ular inson tanasiga tushganida ko‘pincha kasallik qo‘zg‘atadi. Kasallikning qanday kechishi mikrobnining virulentligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Demak, virulentlik mikrobnining patogenlik darajasini ko‘rsatuvchi o‘lchov. Odatda, o‘ta virulentli xususiyatga ega bo‘lgan mikroblar odamda og‘ir kechadigan kasallik qo‘zg‘atadi.

Virulentligi pastroq mikroblar yuqqanida kasallik yengilroq o‘tadi. Umimiy qilib olganda, kasallik alomatlarining qay darajada namoyon bo‘lishiga qarab, yuqumli kasallikning yengil, o‘rta va og‘ir kechadigan turlari farqlanadi. Yuqumli kasalliklar o‘ta og‘ir kechgan hollarda ba‘zan o‘lim bilan tugaydi. Har qanday patogen mikroblar tarkibida zaharli modda — toksin bor. Toksin mikrobnining hayot faoliyati oqibatida hosil bo‘lib, atrof- muhitga tarqalsa ekzotoksin deb ataladi. Grammusbat mikroblar asosan ekzotoksin hosil qiladi. Masalan, diffteriya tayoqchasi, botulizm mikrobi. Ekzotoksin-bu oqsil modda bo‘lib, ferment xususiyatiga ega. Uning ta’sirida moddalar almashinuvi buzilishi oqibatida odamning hayotiy zarur sistemalari zararlanadi. Mikroblar tanasi parchalanishi oqibatida atrof- muhitga tarqaladigan toksinlarga endotoksin deyiladi. U tabiatan polisaxarid birikmalarga kiradi va asosan grammanfiy mikroblar ishlab chiqiladi. Masalan: vabo kasalligi vibrioni, ich terlama mikrobidan kuchli endotoksin mavjud. Yuqumli kasalliklarning tasnifi (klassifikatsiyasi) Yuqumli kasalliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Ichak infeksiyalari. Bu mikroblar odam tanasiga zararlangan suv yoki oziq-ovqatlar orqali tushadi. Kasallik mikrobi asosan, me‘da-ichak yo‘llarida joylashib, ko‘payadi. Shuning uchun kasallikka xos patologik o‘zgarishlar ichakda ro‘y beradi. Ba‘zan, masalan, virusli A va E gepatitlarida kasallik qo‘zg‘atuvchisi ichaklardan jigarga ham o‘tib, uni jarohatlaydi. Bu kasalliklarni kamaytirishda aholi saniatiriya madaniyatini oshirish va toza ichimlik suv bilan ta‘minlashda katta ahamiyatga ega.

2. Nafas yo‘llari infeksiyalari. Bu guruhga mansub kasallik mikroblari bemor tanasidan nafas chiqarganida, yo‘talganida, aksirganida yoki gapirganida atrof- muhitga ajralib chiqadi va sog‘lom kishi tanasiga nafas yo‘llari orqali tushadi. Kasallikdan saqlanish maqsadida ba‘zi hollarda niqob taqish tavsiya etiladi. Qizamiq, ko‘kkyo‘tal, diffteriya,

epidemikparotit (tepki), meningokokkinfeksiyasi, gripp va o‘tkir respirator kasalliklar shu guruhga kiradigan xastaliklardan hisoblanadi.

3. Qon orqali o‘tadigan (transmissiv) infeksiyalar. Bu guruh kasalliklarda sog‘lom odamga kasallik qo‘zg‘atuvchisi turli hasharotlar chaqishi natijasida qon orqali yuqadi. Ular asosan rikketsioz kasalliklardir. Shu sababli ularni kasalliklarning oldini olishda hasharotlar chiqishidan saqlanish muhim ahamiyatga ega.

4. Tashqi qoplam infeksiyalari. Kasallik mikroblari odamga teri orqali yuqadi. Bu guruhga asosan ikkita kasallik kiradi: saramas va qoqshol. Saramas qo‘zg‘atuvchisi streptokokk sog‘lom odamga bemor yoki bakteriya tashuvchidan yuqsa, qoqshol mikrobi va uning sporalari tuproqda bo‘ladi. Teri shikastlanganda ular tuproq orqali tushib kasallik paydo bo‘ladi

5. Turli yo‘llar bilan yuqadigan infeksiyalar. Bu guruhga mansub kasalliklarda patogen mikrobdan odam tanasiga turli yo‘llar bilan tushadi. Ayniqsa zoonoz kasalliklardan brutsellyoz, tulyaremiya, kuydirgi, toun mikroblari shu tariqa yuqadi. Brutsellyoz teri va og‘iz orqali yuqsa, tulyaremiya va kuydirgi kasalliklari qo‘zg‘atuvchisi odam tanasiga teri, nafas yo‘llari va og‘iz orqali tushishi mumkin.

### **Xulosa**

Yuqumli kasalliklar jamiyat salomatligiga jiddiy tahdid soladigan keng qamrovli muammo bo‘lib, ularning xilma-xilligi va tarqalish xususiyatlari ularga qarshi kurashni murakkablashtiradi. Ushbu maqolada yuqumli kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilariga ko‘ra virusli, bakterial, zamburug‘li va parazitlik kabi asosiy turlari, shuningdek, ularning yuqish yo‘llari havo-tomchi, fekal-oral, jinsiy, qon orqali va transmissiv usullar orqali tarqalishi batafsil ko‘rib chiqildi.

Maqolada yuqumli kasalliklarning tarqalish darajasiga qarab sporadik, endemik, epidemik va pandemik shakllarda namoyon bo‘lishi, bu holatlarning har biri alohida e‘tibor va choralar talab qilishi ta‘kidlandi. Shuningdek, yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularni nazorat qilishda vaksinatsiyaning muhim roli, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish kabi choralar muhokama qilindi.

Xulosa qilib aytganda, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda ilmiy tadqiqotlar, innovatsion davolash usullari va profilaktika choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Jamoat salomatligini muhofaza qilish, kasalliklarning tarqalishini oldini olish va insoniyat farovonligini ta‘minlash uchun barcha sa‘y-harakatlarni birlashtirish zarurdir."

### **Foydalingan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik-T.: "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014.- 268 b.
2. Yormatov G‘.Yo. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T. "Aloqachi", 2009. - 348 b.
3. G‘oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. -T.: "Yangi asr avlodi", 2007. - 264 b.

4. Qudratov A. va b. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi". Ma'ruza kursi-T"Aloqachi"  
2005.355 b.
5. <https://www.amerikaovozi.com/a7new-coronavirus/5257326.html>